



UDK: 821.411.21'42

Nizomiddin IBROHIMOV,
O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: n.ibrahimov95@gmail.com

PhD M.Jo'rayeva taqrizi asosida

THE PRESENTATION OF THE INTRODUCTION TEXT AND ITS CONTENT IN THE MANUSCRIPT OF ABUL HASAN MARG'INONI'S MAHOSIN AL-KALOM

Annotation

This paper examines the introduction of the manuscript *Mahāsīn al-Kalām* authored by Abū al-Ḥasan al-Marghīnānī, focusing on linguistic and semantic analysis of the classical Arabic text. The study explores themes such as rhetorical eloquence, aesthetic unity of expression and meaning, and the Qur'an's unmatched stylistic and semantic features as a divine miracle. The author emphasizes that the work was composed during a time of waning interest in literary arts, aimed at reviving the appreciation for refined language among devoted readers. The research concludes that *Mahāsīn al-Kalām* stands as a spiritually and intellectually profound work, asserting that mastery of *balāgha* requires not only intellectual effort but also heartfelt dedication. The Qur'an is presented as beyond the reach of imitation, highlighting its sacred uniqueness in both form and substance.

Key words: Mahosin ul-kalom, Abul Hasan Marghinoni, science of balagha, literary art, Qur'anic style, literary analysis, classical Arabic prose, scientific and spiritual heritage, aesthetic expression, art of speech.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ТЕКСТА И СОДЕРЖАНИЯ ВСТУПИТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ В РУКОПИСИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ-ЛЬ-ХАСАНА МАРГ'ИНОНИ «МАХОСИН УЛЬ-КАЛОМ»

Аннотация

В данной статье рассматривается вступительная часть рукописи «Махосин аль-калам», написанной Абу-ль-Хасаном Маргинони. Проведён лексико-смысловый анализ оригинального арабского текста, с акцентом на риторические приёмы, гармонию формы и содержания, а также уникальность Корана как непревзойдённого образца божественного слова. Автор подчёркивает, что трактат был создан в период снижения интереса к словесному искусству, как ответ на духовную потребность в возвышенной речи. Исследование выявляет высокую эстетическую и духовную значимость произведения, подчёркивает невозможность подражания Корану в человеческой речи и утверждает необходимость постижения искусства *balāgha* через духовное стремление и внутреннюю приверженность.

Ключевые слова: Махосин уль-калам, Абу аль-Хасан Маргинаний, наука балагата, художественное искусство, стиль Корана, литературный анализ, классическая арабская проза, научное и духовное наследие, эстетическое выражение, искусство слова.

ABUL HASAN MARG'INONIYNING "MAHOSIN UL-KALOM" ASARINING QO'LYOZMASIDA KIRISH QISMNING MATNI BERILISHI VA MAZMUNI

Аннотация

Ushbu maqolada Abul Hasan Marg'inoniy tomonidan yozilgan "Mahosin ul-kalom" asarining qo'lyozma kirish qismi matni o'rganilib, uning lug'aviy va ma'no jihatdan tahlili amalga oshirildi. Asarda balog'at, badiiy san'atlar, lafz va ma'nodagi uyg'unlik, Qur'onning betakror bayon uslubi kabi masalalar yoritilgan. Marg'inoniy bu risolani adabiyotga mehr qo'ygan kishilar uchun yozganini ta'kidlab, o'z davrida adabga bo'lgan e'tibor susaygan bir paytda, go'zal so'zning fazilatlarini yoritishga intilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Mahosin ul-kalom" o'z davrining yuksak estetik-ruhiy talqiniga ega bo'lgan asarlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida Qur'onning uslubiy va mazmuniy jihatdan inson nutqidan butunlay ajralib turuvchi mo'jiza sifatida baholanganligi, balog'at ilmining esa chuqur tafakkur va qalbiy bog'liqlik asosida o'zlashtirilishi zarurligi ilgari surildi.

Kalit so'zlar: Mahosin ul-kalom, Abul Hasan Marg'inoniy, balog'at ilmi, badiiy san'at, Qur'on uslubi, adabiy tahlil, klassik arab nasri, ilmiy va ruhiy meros, estetik ifoda, so'z san'ati.

Kirish. Islom ilmlarining taraqqiyotida balog'at, adabiy ilmlarni alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, bu sohada Movarounnahrlik allomalarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ularning asarlari nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ana shunday meroslardan biri, Abul Hasan Marg'inoniy tomonidan yozilgan "Mahosin ul-kalom" asaridir. Bu risola balog'at, adabiy ilmlarni sodda va tushunarli tarzda bayon qilishga qaratilgan bo'lib, muallifning diniy-ilmiy salohiyatini aks ettiradi.

Asarda balog'at ilmining nozik jihatlari, lafz va ma'no uyg'unligi, iboralardagi estetik go'zallik, fikr ifodasining lo'ndaligi va uslubiy xususiyatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Muallif nafaqat nazariy bilimlarni taqdim etadi, balki ularni aniq misollar orqali tushuntirib boradi. Bu jihat asarning o'quvchi tomonidan yaxshi qabul qilinishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, Marg'inoniy o'z zamonasining adabiy va uslubiy mezonlariga tayangan holda, balog'at ilmini zamonaviy ehtiyojlarga uyg'unlashtirishga harakat qilgani seziladi.

"Mahosin ul-kalom" asarida keltirilgan ilmiy mulohazalar faqat nazariy asoslargagina tayanib qolmay, balki ular amaliyot bilan chambarchas bog'langan. Muallif til san'atining nafisliklarini ochib berish barobarida, bu ilmlarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyada tutgan o'rni ham yoritib bergan. Shu bois, ushbu risola o'z davrida ilm ahli uchun muhim

qo'llanma bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham u balog'at va adab ilmlari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun bebaho manba sifatida xizmat qilmoqda.

Asarning boshida [1] الحمد لله رب العالمين والصلوة على رسوله Al-hamdu lillāhi rabbil-‘ālamīn wa-shalātu ‘alā rasūlihi Muhammad wa ‘itratil-akramīn deb boshlanadi, tarjimasida esa “Butun olamlarning Parvardigori Allohga hamd bo'lsin, Uning Payg'ambari Muhammadga va mo'tabar avlodiga salovot bo'lsin” deb, an'anaviy kitobat shaklida berilgandir. ushbu matning tahliliga o'tsak:

الله – maqto'v, hamd, jumlasida الحمد لله رب العالمين – Allohgadidir. رب – butun olamlarning Parvardigori. Bu Qur'onning "Fotih" surasining birinchi oyati. Unda butun borliq ustidan hukmronlik qiluvchi Allohga maqto'v aytiladi.

والصلوة – jumlasidagi so'zlar esa, الصلوة (as-salātu) – ibodat yoki duo ma'nosida, على رسوله – Uning elchisiga (ya'ni Payg'ambariga) hamda محمد – Muhammad (s.a.v.)dir. Bu jumla Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga salovot yo'llanishini bildiradi. Bu musulmon duolarining odatiy unsurlaridan biridir.

عتره – avlod, nasl. Bu yerda Muhammad (s.a.v.)ning avlodi nazarda tutilmoqda, والاكريم – eng ulug', e'zozli, mo'tabar.

Bu jumlada Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hurmatli avlodlariga ham salom va duo yo'llanmoqda. Bu ifoda, ayniqsa, Ahl al-Bayt (ya'ni Payg'ambarimizning oilasi va zurriyotlariga) bo'lgan muhabbatni ifodalaydi.

Bu jumla islomiy matnlarda keng uchraydigan ibora bo'lib, Allohga hamd, Muhammad (s.a.v.)ga salovot va uning muqaddas zurriyotiga hurmat ifodalanmoqda. Matn Qur'oniy tilga yaqin va diniy ruhdagi duo ko'rinishida.

Asarning davomida esa, ushbu kitobni yozilish maqsadi tushuntirilgan quyidagi matn berilgan:

هذا كتاب ألفناه في محاسن الكلام وبدائيه و ماستحي من صنايعه لبعض اخواننا من الراغبين في الادب و همنافين فيه و العاسين لي على حين [1]الحموس من آثاره وانصران هم النفوس عن إثاره

Transkripsiya: Hādhā kitābun allafnāhu fī maḥāsini al-kalām wa badāyatihi wa mā istaḥyaynā min ṣanā'ih li-ba'di ikhwaninā min ar-rāghibīn fī l-adab wa hum nāfin fih wa lāmisīn bih wa l-‘āsīn lī ‘alā ḥin laḥmūs min āthārih wa inṣirāf al-nufūs ‘an iṭhārih.

Tarjimasida: Bu kitobni biz go'zal so'zlarning fazilatlarini va ularning ibtidosi haqida yozdik, va undagi badiiy san'atlarni ifodalashdan tortinmadik. Uni adabiyotga ixlos qo'ygan, unga qiziqish bildirgan, unga yaqinlashgan va uni tatib ko'rgan ayrim birodarlarimiz uchun bag'ishladik. Ular bu sohaning izlarini ko'rmay, o'zlarini undan chetga tortayotgan bir paytda menga yuz burishdi.

Ushbu matnni tahlil qiladigan bo'lsak, هذا كتاب ألفناه Biz – bu bir kitobdir, في محاسن الكلام وبدائيه – So'zlarning chiroyli jihatlarini haqida yozdik, و همنافين فيه و العاسين لي على حين – Uning boshlanishi (ya'ni nutqning ibtidosi) deb bitilib, unda muallifi kitobni chiroyli so'z san'atlari va ularning boshlanishi haqida yozganini bildiradi.

Matn davomida esa, jumlasidagi وما استحيينا من صنايعه – Biz uyalmadik / tortinmadik hamda من صنايعه – Uning san'atlaridan, badiiy usullaridan degan ma'nolarni kasb etib, kitobda nutqning barcha jihatlarini ochiq ifodalangan, muallif hech narsani yashirmagandir.

Matndagi galdagi jumlasida الراغبين في الادب – Bazi birodarlarimiz uchun va من بعض اخواننا – بعض الراغبين في الادب – Adabiyotga qiziqqan, uni sevgan kishilar uchundir deb berilgan. Demak, asar, alohida ravishda, adabiyotga mehr qo'ygan kishilarga atalgan.

Asarni yozishni o'ziga yarasha mashaqqatli bo'lgani haqida esa muallif quyidagi jumalalarda bilanadi, ya'ni وهم نافرين فيه و لاسمين به و العاسين لي

tarjima qilinsa, وهم نافرين فيه – Ular uni inkor qilganlar (yoki yetarlicha qadrlamaganlar), ولاسمين به – Unga aralashgan, tegib ko'rgan, والعاسين لي – va menga qarshi bo'lganlar kabi so'zlar bilan muallif, adabni tanigan, lekin uni to'liq qabul qilmagan, yoki muallifga qarshi chiqqan odamlarga ishora qiladi.

Keyin esa muallif birdan davrga o'quvchi yuz burdiradi, ya'ni kitob yozilish davrini على حين لحموس من آثاره jumlasida bilan ifodalab, undagi arabiy so'zlar o'zbek tiliga quyidagicha berilsa bo'ladi: على حين لحموس – Uning (adabning) izlari yo'qolgan bir davrda, وانصراف – Va odamlar uni tanlashdan yuz o'g'irgan bir zamonda. Muallifning yozishicha, bu kitob adabning qadrsizlanib, odamlar uni rad etayotgan bir davrda yozilgan.

Bu muqaddima yoki kirish qismida muallif o'z asarini adabiyotga oshno kishilar uchun yozganini bildiradi. U, odamlarda adabiy san'atga e'tibor pasaygan davrda, chiroyli so'zlarni qadrllovchi bir asar yaratganini ifodalaydi. Matn klassik arab nasriga xos bo'lgan murakkab, badiiy va kinoyali tilda yozilgan.

وذكرنا منه ما لا يستغنى عنه إن كانت فنون التبيين أكثر من أن تُخصى [1]ولا يُقدر فيه بلوغ الغاية والمقصى

Transkripsiya: Wa dhakarnā minhu mā lā yustaghna ‘anhu in kānat funūn al-badī akthara min an tuḥṣā wa lā yutaqaddaru fih bulūgh al-ghāyah wa-l-maqṣī

Tarjimasida: Va biz undan ehtiyoj sezilmaydiganlarini emas, zarur bo'lganlarini esladik. Zero, badiiy san'at turlari sanog'iga yetmas darajada ko'pdir va bu borada eng oliy darajaga yetishish baholalanmaydigan darajada mushkuldir.

Mazkur matnni tahliliga o'tsak, وذكرنا منه ما لا يستغنى عنه (Wa dhakarnā minhu mā lā yustaghna ‘anhu) Ma'nosi: “Biz undan ehtiyoj sezilmaydigan emas, balki zarur bo'lgan qismini esladik” deya, muallif barcha badiiy unsurlarni emas, balki eng keraklilarini tanlab yoritganini bildiradi.

Asarda badiiy san'atlar ko'pligi hamda murakkabligi In kānat funūn al-badī akthara min an tuḥṣā “Badiiy san'at turlari sanog'iga yetmas darajada ko'p bo'lsa-da...” ya'ni bu yerda badii' ilmi (balog'atdagi badiiy uslublar)ning nihoyatda kengligi, chegarasizligi ifodalangan. So'ngra, ولا يُقدر فيه بلوغ الغاية والمقصى (Wa lā yutaqaddaru fih bulūgh al-ghāyah wa-l-maqṣā) “Va bu borada maqsadga yoki mukammallik darajasiga yetishish baholab bo'lmaydigan darajada mushkuldir.” Badiiyat ilmi shunchalik chuqurki, uning eng yuqori nuqtasiga erishish deyarli imkonsiz ekani ta'kidlanmoqda.

Bu jumla balog'at san'atlari (xususan, ilm al-badī) haqida yozilgan matnning bir qismi bo'lib, unda muallif barcha badiiy uslublarini emas, balki eng zarur, asosiylarini yoritganini, bu fan shunchalik kengki, barcha turlarini sanab bo'lmashligini va nihoyat, bu sohada mukammallikka yetishishning imkonsiz yoki cheksiz mehnat talab etishini bildiradi.

Abu hasan Marg'inoniy asarni yozishi uning taqdiriga yozilgan ekanligiga ishora qilib quyidagi matn bilan davom etadi:

وهنا علم يجب أن تكون النفس به مشغوفة، والهمة إليه مُصرقة، قسّم والأيام لله مؤفوفة [1]

Transkripsiya: Wa hunā ‘ilmun yajibu an takūna-nafsu bihi mash ūfatan, wa-l-himmatu ilayhi muṣrafatan, qismun wa-l-ayyāmu lillāhi mawqūshah.

Tarjimasida: Bu yerda shunday bir ilm borki, u qalbn o'ziga maftun etmog'i, inson ruhini unga yo'naltirmog'i lozim. Bu - taqdirdan berilgan nasiba, Allohga oid kunlar esa tamg'alangan va belgilab qo'yilgandir.

Matnni tahliliga o'tsak, mazkur matnda هنا علم – “Bu yerda bir ilm borki...” gap muayyan bir fan - balog'at, adab, badiiyat ilmi haqida ketmoqda. يجب أن تكون النفس – qalb unga oshufta bo'lishi lozim” Yajibu – “lozimdir”, al-nafs mash ūfah bihi – “ruh, jon unga

maftun bo'lishi kerak" deya, bu fan bilan qalban shug'ullanish, uni chin qalbdan sevish kerakligi ta'kidlanadi. وَالْهَمَّةُ إِلَيْهِ مُصَرَّفَةٌ – "Va orzu-niyat unga qaratilgan bo'lishi lozim" deb, ilmga bo'lgan intilish, g'ayrat, qat'iyatli yo'naltirilgan bo'lishi kerak degani bo'lsa, matnda qism – "bu - nasiba, taqdirdan ajratilgan ulush" degan ma'noda bo'lib, ushbu fan bilan shug'ullanish yoki unga moyillik Alloh tomonidan berilgan nasibadir. وَالْإِيَّامُ "Va kunlar Alloh tomonidan belgilangan" Har bir insonning umr vaqti, hayot yo'li Alloh taolo tomonidan "muhrlangan", oldindan belgilangandir. "Mawqūshah" – ya'ni "belgi qo'yilgan, tamg'alangan", qismati yozilgan degan ma'noni beradi.

Bu jumla balog'at san'atining ruhiy-falsafiy ahamiyatini o'zida mujassam etgan. Muallif bu ilmga (ehtimol, adabiyot yoki balog'atga) bo'lgan ixlosning faqat aql bilan emas, balki qalb bilan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunday intilish esa faqatgina Allohning ilmi va irodasiga bog'liq bo'lgan taqdiri ulush (qism) orqali insonda paydo bo'ladi.

Shuningdek, har bir inson hayotining bosqichlari va ilmiy izlanishdagi yutuqlari - Alloh tomonidan belgilab qo'yilgan "mawqūshah" (ya'ni, muhrlangan kunlar) doirasida kechadi, degan chuqur falsafiy fikr ilgari surilgan.

Shundan so'ng muallif balog'at ilmiga aynan islom dinini muqaddas kitobi Qur'oni Karim sababli vujudga kelganli haqida kletirib o'tadi va uning quyidagi matn bilan ifoda etadi:

فَإِنَّ الْقُرْآنَ الَّذِي هُوَ خَارِجٌ عَنِ النَّظْمِ الْمَعْقُودِ وَالنَّشْرِ الْمَعْمُودِ، إِحْدَى الْمُعْجَزَاتِ الْقَائِمَةِ إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ، لِمَا اخْتَصَّ بِوُجُوهِهِ وَمَعَانِيهِ الَّتِي لَا يُنَاسِبُهَا، وَلَا [1] يُغَارِيهَا شَيْءٌ مِنَ الْكَلَامِ، فَهُوَ مَطْمَعٌ مُمْتَنِعٌ بَعِيدٌ

Transkripsiya :Fa-inna al-Qur'āna alladhī huwa khārijun 'ani-n-naẓmi al-ma'qūd wa-n-nashri al-ma'mūd, ihdā al-mu'jizāti al-qā'imah ilā yawmi al-qiyāmah, limā ikhtaṣṣa bi-wujūhihi wa-ma'ānihi allati lā yunāsibuha wa lā yuqārīhā shay'un mina al-kalām, fahuwa maṭma'un mumtani'un ba'īd.

Tarjimasi: Chunki Qur'on - odatiy so'z tuzilmalari va odatdagi bayon uslubidan butunlay ajralib turuvchi ilohiy kalomdir. U qiyomat kunigacha davom etadigan abadiy mo'jizalardan biridir. Bunga sabab - uning mazmun va ifoda shakllari shu qadar yuksakki, hech bir insoniy so'z u bilan tenglasha olmaydi va unga o'xshashlik qilish fikri o'ziyoq imkonsiz, yetib bo'lmas orzudir.

Matn tahlilga o'tsak, فَإِنَّ الْقُرْآنَ الَّذِي هُوَ خَارِجٌ عَنِ النَّظْمِ الْمَعْقُودِ وَالنَّشْرِ الْمَعْمُودِ jumlasida, nazm al-ma'qūd - "bog'langan (ya'ni odatdagi she'riy) uslub" nashr al-ma'mūd - "yoyilgan, tartibli nasriy bayon" so'z birikmalari, Qur'on - bu ikki odatiy adabiy janrdan, ya'ni na she'r, na oddiy nasrdan, balki mutlaqo o'ziga xos, ilohiy uslubda ekanligiga dalolat beradi.

إِحْدَى الْمُعْجَزَاتِ الْقَائِمَةِ إِلَى يَوْمِ الْقِيَامَةِ jumlasida esa, "Qiyomat kunigacha davom etuvchi abadiy mo'jizalardan biridir" degani bo'lib, unda Qur'onning harfiy, ma'noviy va ruhiy jihatdagi yuksakligi insoniyat tarixida doimiy mo'jiza sifatida qolishni ta'kidlaydi. لِمَا اخْتَصَّ بِوُجُوهِهِ وَمَعَانِيهِ الَّتِي لَا يُنَاسِبُهَا، وَلَا يُغَارِيهَا شَيْءٌ مِنَ الْكَلَامِ "Undagi yondashuvlar va ma'nolar shunchalik oliy darajada va yuksakki, hech bir nutq u bilan tenglasha olmaydi" deb yozadi, bu Qur'onning uslubiy betakrorligi va semantik chuqurligiga ishoradir. فَهُوَ مَطْمَعٌ مُمْتَنِعٌ بَعِيدٌ "U - havas qilinadigan, ammo yetib bo'lmaydigan darajada yuksak bir orzudir" ya'ni, Qur'on kabi matn yaratish niyati mumkin bo'lsa ham, amalda bu ilohiy kalomga tenglashish inson imkonidan tashqarida.

Qur'on kalomi, o'zining kompozitsion va uslubiy tuzilishi bilan an'anaviy nasr va she'rdan tubdan farq qiladi. Uning o'ziga xosligi - na rhytmik vaznda, na odatdagi nasriy mantiqda mujassam, balki ilohiy va ta'sirchan bayonning beqiyos namunasidir. Shu bois, Qur'on, adabiyotda alohida o'rin tutadigan ilohiy mu'jiza sifatida qiyomat kunigacha o'z dolzarbligini saqlab qoladi. Bu kalomning mazmuniy chuqurligi va ifodadagi mukammalligi hech bir insoniy matn bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Uni o'xshatishga urinish esa - inson uchun yiroq, amalda imkonsiz bir orzudir.

Ushbu kichik tadqiqot davomida biz so'z san'ati, balog'at ilmi va Qur'onning badiiy uslubiga oid muhim matnlarni tahlil qildik. Tahlil qilingan iboralar va iboratlar, o'z zamonasi adabiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, nutqning estetik qudratini, ifodaviy boyligini va ma'naviy chuqurligini ochib beradi.

Avvalo, adabiyotning badiiy shakllari - nafaqat aqliy, balki qalbiy munosabatni talab qiluvchi soha ekaniga urg'u berildi. So'zdan san'at darajasida foydalanish, oddiy mantiqiy bayon emas, balki ruhiy sezgi, intellektual yondashuv va mahorat bilan uyg'unlashgan ijodiy jarayon sifatida tushunildi. Badiiyatga doir fanlar shunchalik murakkab va ko'p qatlamli, ularga to'la yetishish insonning individual sa'y-harakatidan tashqariga chiqadi. Shu bois, bu fanlarda mukammallik emas, izchil izlanish muhim deb qaraladi.

Qur'onning uslubiy ajralib turishi esa alohida o'rin tutdi. Uning shakl va mazmundagi betakrorligi, na odatiy she'riy, na klassik nasriy mezonlarga sig'masligi uni insho san'atidan yuksak darajaga olib chiqqan. Qur'on - bu insoniyat tarixidagi ilohiy mu'jiza bo'lib, undagi semantik chuqurlik va ifodaviy barkamollik hech bir insoniy kalom bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada balanddir. U bilan bellashishga harakat qilish esa - nazariy jihatdan orzu qilinar, amalda esa yetib bo'lmas cho'qqidir.

ADABIYOTLAR

1. "Mahosin-ul kalom" asari qo'lyozmasi. Abu Hasan Marg'inoniy. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo'lyozma 2956-II inverter raqami.
2. Абдулкаюм, А. Балоғат илми: назарий ва амалий асослар. – Тошкент: Фан, 2006. – 245 б.
3. Захириддин, Н. Қуръондаги баён услублари ва уларнинг бадий хусусиятлари. – Тошкент: Ислом олами, 2012. – 176 б.
4. Али ибн Аби Тойиб. Илм ал-бидийъ фи ал-балоға. – Қоҳира: Дар ал-Фикр, 1998.
5. Al-Jurjani, Abd al-Qahir. Asrār al-Balāgha wa Dalā'il al-I'jāz. – Beirut: Dār al-Ma'rifa, 1991.
6. Al-Qaradawi, Yusuf. The Miraculous Nature of the Qur'an. – Cairo: Al-Falah Foundation, 2005.
7. Sells, Michael. Approaching the Qur'an: The Early Revelations. – Ashland: White Cloud Press, 1999.
8. Gutas, Dimitri. Greek Thought, Arabic Culture: The Graeco-Arabic Translation Movement in Baghdad and Early Abbasid Society. – London: Routledge, 1998.
9. Al-Azami, M.M. The History of the Qur'anic Text: From Revelation to Compilation. – Leicester: UK Islamic Academy, 2003.